

MODERN SHE'RIYATI TAHLILI ASOSLARI

Axadova Sevara

Samarqand Viloyati Pedagogika Instituti 2-kurs magistranti

XX asr adabiy jarayoni badiiy tafakkurning tubdan o'zgarishi, poetik ifoda vositalarining yangilanishi va san'atning inson ongidagi yangi ma'nolarni izlash jarayoni bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, modern va postmodern yo'nalishlar she'riyatning mazmun-mohiyatini yangicha talqin qilishga imkon berdi.

Modernizm badiiy ijodda individuallik, ichki kechinmalar, ramz va timsollarga urg'u berib, she'riyatni insonning mavjudlik bilan kurashi, iztiroblari va ruhiy izlanishlarining badiiy shakliga aylantirdi.

Postmodernizm esa bu yondashuvni yangi shakllar, o'yinlar, parodiya va matnlararo dialoglar orqali yanada murakkablashtirdi. Modern va postmodern she'riyatni tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu yo'nalishlar o'rtasidagi estetik farqlarni, umumiy konsepsiyalarni, poetik obrazlar tizimini va matn qurilishidagi o'ziga xosliklarni aniqlash ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyat yaratadi.

Zamon o'zgarishi, global tafakkurning shakllanishi kabi jarayonlar she'riyatning mazmun-strukturasiga bevosita ta'sir qilib, uni ko'p qatlamli, chuqur ma'noli, o'quvchini fikrlashga undaydigan murakkab tizimga aylantirdi.

Bugungi o'zbek she'riyatining ko'plab namunalari aynan modern va postmodern tamoyillar ta'sirida rivojlanib, milliy adabiy tafakkurning yangi bosqichini shakllantirilishi mazkur mavzuning dolzarbligidir. Modernizm (fran. moderne-eng yangi, zamonaviy)-XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi.

Modernizm bu XX asr boshida ro'y bergan keskin o'zgarishlar natijasida bo'lgan san'at va adabiyotdagi tajriba maydoni bo'lib, u o'quvchini tafakkur qilishga o'rgatadi. Peter Gayning "Modernism. The lure of heresy" asarida shunday deyiladi: "...modernistlarning munosib ajdodlari bor edi.

Ular uchun o'z asarlarini o'z-o'zini tekshirish yoki ularning noan'anaviy faoliyati uchun juda muhim bo'lib qoldi. Taxminan, 1840-yillardan boshlab va yillar o'tishi bilan men Charlz Bodlerni boshqa barcha bid'atchilarga qaraganda modernizmning birinchi qahramon shoirlari tilning ifodali imkoniyatlarini mashq qilar ekan, an'anaviy she'riyat yoki munosib mavzularga nisbatan ezoterik chiqishlar qilganlar sifatida tanlayman.

Roman yozuvchilari o'z qahramonlarining fikrlari va his-tuyg'ularini avvalgidan ham ko'proq o'rganishni boshladilar. Dramaturglar eng nozik psixologik mojarolarni sahnaga qo'yish uchun kelishdi. Rassomlar san'atning azaliy imtiyozli vositasi- tabiatdan yuz o'girib, tabiatni o'zlarida izlay boshladilar.

Modernist musiqasi oddiy tinglovchilar uchun tobora ichki ruhiy tajriba beradigan, lekin darhol zavq keltirmaydigan shaklda rivojlandi".

Modernizm eski an'anaviy qoidalarga bo'ysinmaydigan she'riyat turlaridan biridir.

U insonning his-tuyg'ularini, fikrlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan.

She'rdagi obrazlar ko'pincha insonning ichki dunyosini aks ettiradi.

Abdurauf Fitratning “O’gut “ she’ri modernizmga xos:

Turma-yugur, tinma-tirish, bukilma-yuksal,

Hurkma-kirish, qo’rqma -yopish, yo’rilma qo’zg’al.

Ushbu satrlarni tahlil qiladigan bo’lsak, erkin vaznda yozilgan, an’anaviy syujet yo’q, insonning ruhiy kechinmalari asosiy tasvir vositasi qilib olingan. Shoir zid so’zlarni qo’llab, o’zining ichki kechinmalarini erkin bo’lishini, porlab chiqishini xohlamoqda. Yokida ushbu she’rning keying satrlariga e’tibor qaratsak:

Yel yo’lini to’sib turgan eski bulutlarni

Yondirib qo’y, yirtib tashla, barchasini yo’q et.

Qilolmasang shu ishlarni,

Sening uchun xo’rlikdir bu..

Yiqil, yo’qol, ket!

Bunda shoir hurriyatni xohlashini baralla aytgan. Shoir “Adabiyot qoidalarini “ asarida modernizmga shunday ta’rif beradi: “ ...bu oqim yangi rumontizm oqimidir. Bu oqim ijtimoiy harakatlarga, fanniy tushunishga qarshi bir oqimdir.”

Sen ayolga berolmay qolib

Ketgan baxt

Yurakning qay chekkasidadir

Azob berib, achchiq simillar.

Faxriyorning bu she’rida yo’qotilgan baxt, ichidan ezilayotgan shaxsni gavdalandirgan. Modernizm she’riyati — bu adabiyotda insonning ichki dunyosini, ruhiy ziddiyatlarini, yolg’izlik, iztirob, kechikkan baxt va ong uyg’onishini markazga qo’ygan badiiy tafakkur yo’nalishidir. U an’anaviy she’riyatga xos bo’lgan qat’iy vazn, aniq syujet va oshkora g’oyadan voz kechib, ramziy, abstrakt va erkin ifodani ustuvor qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug’ati.-Toshkent: Akademnashr, 2013. 176-b
2. Peter Gay. Modernism. The lure of heresy. W. W. Norton Company. New York London. 19-b
3. Z. Mirzayeva. N. Qodirova. Q. Mamiraliyev. 8-sinf adabiyot darslik. T: 2025. 127-b
4. A. Fitrat. Tanlangan asarlar 4. T: Ma’naviyat. 2006. 87-b
5. <https://kh-davron.uz>